



## ALISHER NAVOIYNING G'AZAL VA QIT'ALARIDA ADOLAT MASALASI

Kamolova Charos To'lqinboy qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

4-kurs talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7980442>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 28<sup>th</sup> May 2023

Online: 29<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

*Adl, adolat, hukmdor, haqiqat, odil, haq, rostlik.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Alisher Navoiyning g'azal va qit'alarida adolat masalasining badiiy talqini, muallifning adolat mavzusiga murojaat etishining asosiy g'oyaviy maqsadi, shoir tasavvuridagi adolatli hukmdor tasviri va uning badiiy ifodasi tahlil etiladi.*

Ulug' mutafakkir Mir Alisher Navoiy badiiy ijodda qanchalik tengsiz bo'lsa, ilmda, ijtimoiy-siyosiy hayotda ham shunchalik benazir edi. Shu sababli ham shoir ijodi nafaqat adabiyotshunos, balki tarixchi, huquqshunos va siyosatshunoslар tomonidan ham o'r ganilmoqda, targ'ib va tashviq qilinmoqda.

Navoiy "Majolis un-nafois" asarida Samarqandda o'z zamonining taniqli huquqshunos olimlaridan bo'lgan Xoja Fazlulloh Abullays Samarqandiyning madrasasida fiqh ilmidan ta'lim olgani haqida yozadi. Bundan ko'rindaniki, Navoiy ko'p yillik davlat boshqaruvi va fiqh (huquq)dan nazariy hamda amaliy bilimga ega bo'lib, bu boradagi qarashlari davlat, qonunlar to'g'risidagi asarlarida aks etgan. O'z navbatida bu qarashlar adolat g'oyasiga borib taqaladi.

Adolat mavzusi o'zining serqirraligi, mavzusining kengligi bilan o'ziga xos ahamiyatga egadir. Shoir ijodiy faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, adolat mavzusini tarannum etilishi shoh va xalq, shoh va arkonи davlat, sulton va uning farzandlari, aka-ukalar, oshiq va ma'shuq o'rtaсидagi va yana boshqa munosabatlarda namoyon bo'lishiga guvoh bo'lamiz. "Navoiy adolat mamlakatni boshqarishda eng asosiy qoida bo'lmog'i kerakligini alohida kuch bilan uqtiradi". Chunki adolat qaror topgan yurt hech qachon zavolga yuz tutmasligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy lirikasida adolat talqini haqida esa hali biror o'rinda yoki tadqiqotlarda teranroq fikr yuritilmagan. Shoir she'riyatida adolat mavzusi ba'zan ijtimoiy-falsafiy, ba'zan siyosiy-huquqiy, ba'zan esa ishqiy ko'rinishda o'z ifodasini topadi.

Alisher Navoiy lirikasida adolat talqini oshiqona g'azallarda ko'proq uchraydi. G'azallarda majoziy ma'noda adl yoki adolat so'zлari yorning xususiyatlariga mutanosib tarzda aks ettiriladi. Xususan, shoir "G'aroyib us-sig'ar" devonining "Tushda sarv-u guldin islab birni, quchtim birini..." matlali g'azalida lirik qahramonning tushida yor vasliga yetishgandan keyingi ahvolini baytma-bayt tasvirlab boradi. Yor oldida naqqosh Moniy ham ojiz qolishini bayon etadi. Shoir g'azalda adolat mavzusiga ham to'xtalib o'tadi.

Vasl ila qilg'il buzug' ko'nglum ilojinkim, qilur

Shoh adl etmak bila vayronalar ta'mirini...



Ko'rinishi turibdiki, shoh odillik bilan vayron yurtni obod qilgani kabi vasl, ya'ni yorning ko'rinishi oshiqning buzuq yaralangan ko'nglini tuzatishi zarur. G'azal tasavvufiy bo'lib, bunda "adl" so'zi ko'chma ma'noda qo'llanganligiga, aslida shoir Alloh vasliga umid qilayotganiga guvoh bo'lamiz.

Yana bir g'azalga e'tibor beraylik:

Labing takallum etib, so'zda lol qildi meni,  
Ochildi zulfungu oshuftahol qildi meni.  
Yuzi ko'rundi, oching emdi zulfi silsilasin,  
Ki ul pari yana majnunmisol qildi meni.  
Ayog'in o'pgali boshim yo'lig'a yetkurdum,  
Fig'onki, zuldi kibi poymol qildi meni.  
Qoshi xayolida payvasta baski chektim ranj,  
Falak bu g'amda nechukkim hilol qildi meni.  
Beli g'amida xayol o'ldum ohu afg'ondin,  
Bu mo'ya mo'y etib, ul nola nol qildi meni.  
Kup og'zima quy adl jomin, ey mug'kim,  
Qazo bu shevada bei'tidol qildi meni...  
Navoiy, anglaki, jurmumcha yuz umidam bor,  
Faqiri zohid o'zidek xayol qildi meni.

Shoir ushbu g'azalda go'zalning labi so'zlashga kirishib, uni oshuftahol qilganligini, yuzini yashirib turgan zulf ochilib oshiqni bejon qilganligini, endi uni ko'rmasa devona bo'lib qolishligini, kokilining zanjiri ochilib yuzini yana bir bor ko'rsatsa, uni majnun qilib qo'yishini dastlabki misralarda ko'rsatadi. Oxirida Sharq adabiyotidagi ramziy "jom va soqiy"ga murojaat egan shoir, oshiqlik jomidan may berishini mug' (ya'ni soqiy, so'fiylik nuqtai nazaridan piri komil) dan talab qiladi. E'tibor qilinsa, oshiqlik jomining adl jomi deyilishiga sabab bor. Chunki ishq poklanish, komillik yo'li bo'lib, jomidagi ishq tufayli oshiq mutlaq odil zotga yetishadi. Adolatparvarlik, barchani teng ko'rish esa komillikning bir ko'rinishlari bo'lgani holda bu yo'lda unga ko'maklashadi. Shu bois shoir ishq jomini adl jomi sifatida beradi.

Alisher Navoiy g'azallarida shohlar atrofida - saroyida dono vazir va amaldorlar bo'lishi lozimligi, uningadolatli boshqaruvini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi masalasi ham judo nozik tarzda ifoda etilgan. Jumladan,

Shoh yonin farzin kibi kajlar maqom etmish ne tong,

Rostravlar arsadin gar tutsalar ruxdek qiroq...

Bunda so'z shaxmat taxtasida shoh, farzin va rux kabi donalarning o'rni haqida borganday tuyuladi. Ammo asosiy maqsad esa ijtimoiy hayotdagi shoh, uning vaziri a'zami (farzin) va amaldorlari (rux)ning sifatlarini bayon etishdan iboratdir. Shuning uchun farzinga "kaj", ruxga esa "rostravlar" sifatlari berilgan. Bu bilan Alisher Navoiy shohning yonida "kajravlar" – egrilar, firibgarlar bo'lsalar, ular "rostravlar", ya'niadolatli, imonli kishilarni shohga yaqinlashtirmaydilar, natijada "rostravlar", xuddi shaxmat taxtasining bir chetida ruxning o'rin olganiday, shohdan uzoqlashadilar. Buning natijasida esa mamlakatni boshqarishda "farzin"lar yetakchilik qilgach,adolatsizlik, zolimlik, firibgarlik avj oladi. Demak, Alisher Navoiy bu bilan shohlarni ogohlantirmoqda va bunday holga yo'l qo'ymaslikka da'vat



etmoqda. Yuqorida qayd qilinganlardan ko'rindiki, Alisher Navoiy g'azallarida boshqa ko'pgina mavzular bilan birga ijtimoiy hayot, shoh va shohlik boshqaruvi masalariga oid ijtimoiy qarashlarini ham nihoyat mo'jaz tarzda ifoda etgan.

Shuning bilan birga shoir qiziq bir hodisaga ham diqqatni qaratgan, u ham bo'lsa, shoh va oshiqlik masalasidir. Alisher Navoiyning tasvirlashicha, shoh va shohlikning ishq va oshiqlikka aloqasi yo'q, bular ikki bir-biriga qarama-qarshi sifatlardir:

Ishq aro dushvordur bo'lmoq kishi hamdardi shoh,

Chun de olmas dardini bir yil yugursa dodxoh.

Shoh dodimg'a netib yetsgunki mulki ishq aro,

Qadri oliv shoh ila tengdur gadoyi xoki roh.

Shoh mendin ishq aro ojizroq o'lsa tong emas

Kim, balokashlik mening xo'yimdur, aning izzu joh.

Shohliqning daxli yo'q ishqu muhabbat ko'yida

Kim kerak anda sarig' yuz, la'lgun ashk, o'tlug' oh.

Shoh kim, matlubig'a qulluq buyurgay ishq emas,

Kimki, oshiqdur anga zoru zabunlug'dur guvoh.

Sarv ila xoshok agar gul oshiqidur farqi bor,

Sarvg'a to o't tutashqay, kul bo'lur yuz ming giyoh.

Ey Navoiy, sidq ila bo'lg'il gado ishq ichrakim,

Taxtu tojin bersa, bu davlatni topmas podshoh.

Shoir mazkur g'azalida ifoda etilgan mavzuni har kim har xil sharhlashi, talqin qilishi mumkin. Bizningcha, Alisher Navoiy bunda eng olivjanob fazilat bo'lmish ishq-u muhabbatdan, uning sohibi bo'lgan oshiqning esa "balokash", "sarig' yuz", "la'lgun ashk", "o'tlug' oh", "zor-u zabunlig" sifatlariga ega bo'lishi haqida so'z yuritmoqdaki, bunday sifatlar hamma oshiqlarga ham tuyassar bo'lavermaydi. Bunday fazilatlarni esa boylik, toj-u taxt evaziga ham qo'lga kiritish mumkin emasligi g'azal maqta'sida nihoyatda chiroylar aniq-ravshan bayon etilgan.

Navoiy g'azallarida ishq mavzusi bilan ijtimoiy-axloqiy, falsafiy munosabatlar ham aralashib, hamohang holda kelganini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, "Badoe ul-bidoya" devonining "El tilidin jonima gar yuz balo mavjud erur..." matla'si bilan boshlanuvchi g'azali bunga misoldir. Shoir g'azal matlasida xalqning gap-so'zlaridan joniga yuz balo mavjudligini, qonga belanishga sababchi narsa tilimiz ekanligini, yuz va ko'krak orasidagi jag'dan (bu yerda og'iz ma'nosida) chiqqan har bir so'z, olovda kuydirilgan olma hididay gohida yoqimli, gohida yoqimsizligini ta'kidlagani holda fikrlarini yorning bevofoligiga, uning mehridan umidvor bo'lmaslikka bog'lab ketadi.

G'azal oxirida Navoiy zulm eshigi (manbai) shoh G'oziy adolati bilan band bo'lganligi sababli uyquga ketgan emas, lekin insonlarga yomonlik qila olgan ham emas (ya'ni adolat bilan bandligi sababli), deya fikrini yakunlaydi:

Ey Navoiy, ermas ul zolim ko'zi uyqudakim,

Zulm eshigi shohi G'oziy adlidin masdud erur.

Navoiy g'azallarida oshiq ma'shuqa zulmidan qanchalik qiynalmasin, baribir yor vaslidan umidini uzmasligini kuzatamiz.



Ko'ngulni zulm ila buzding, bale, bo'lur ma'mur,  
Shaheki, mulkida ehson ila adolati bor.

Lirik qahramon ma'shuqa bergan jafodan shunchalik azob chekadiki, buni shoir yor zulmi tufayli ko'ngil uyining buzilganiga qiyoslaydi. Lekin u bir kun kelib bu ko'ngil uyi obod bo'lishini biladi. Chunki u ma'shuqaning shunday shohga o'xshatadiki, uning yurtida ehson vaadolat bor. Lirik qahramon ma'shuqaning ehsonidan umid qiladi. Oshiq hech qachon umidsizlanmaydi. Bir kun kelib adolat qiladi, deya orzu qiladi. Keyingi misralardan anglashiladiki, bu g'azal tasavvufiy mazmunda, ya'ni shoir Haq vaslidan umid qiladi.

Qadah quyoshi bila ravshan ayla xotirni,  
Chu anglasangki, falak zulmidin zalolati bor.

Ya'ni oshiq ishq quyoshdek porlab ko'ngilni yoritsin, chunki falakning, ya'ni taqdiri azalning zulmi ko'pdır, quyosh tafti odamni isitgani kabi bu quyosh qadahi ham seni zulm zulmatidan asraydi, deya zorlanadi. E'tibor berilsa, shoir quyosh qadahini adolat qadahi ma'nosida qo'llaganiga amin bo'lamiz.

"Navodir ush-shabob" devoninning 373- g'azalida ham lirik qahramon har qancha azob cheksa-da yor marhamatidan umid qilishdan to'xtamaydi:

Navoiy bir nafasda hajr zulmidin xalos o'lg'ay,  
Agar ahvoldin bir nukta so'rsa xusravi odil.

Odil shoh, ya'ni ma'shuqa (Alloh)ning oshiq (Navoiy)dan xabar olishi Navoiyning shu paytgacha chekkan hijron azobidan xalos qilardi. Chunki ma'shuqa oshiqning shuncha chekkan alamlarini mukofatlagan, adolat ko'rsatgan bo'lardi.

Boshqa g'azalda ham bu holatni kuzatamiz. Lirik qahramon ilinj bilan yashaydi. Axir shohlikning belgisi adolatidir, deya zorlanadi.

Desamki, ey jamol elining shohi, qilma zulm,  
Der, shohliq tariqidadur bu adolatim.

Shoirning "Yuzingni ko'rdum, emdi ko'zlarimni bog'la..." matlali g'azalida lirik qahramon yorga qarata "yuzingni ko'rdim, endi ko'zlarimni bog'la, toki boshqa yuzni ko'rishga moyilligim bo'lmasin", - deya o'tinadi. Chunki u butun umr mashuqaning yuzi ko'z o'ngida muhrlanib qolishini istash bilan birga, yorga xiyonat qilmaslikni istaydi. Ma'shuqaga qotil deya murojat qilishining sababi esa u o'ldiruvchi , azob beruvchidir. Jallod ham bandining ko'zni o'limi oldidan bog'laydi, qolaversa mumtoz adabiyotda yor kipriklarini qoqishi jallod qilichiga ham o'xhatiladi.

Yuzungni ko'rdum, emdi ko'zlarimni bog'la, ey qotil,  
Ki nogah bo'limg'aylar o'zga yuzni ko'rgali moyil.

Keyingi baytlarda oshiq g'amiga to'qqiz falak ham hayron qolishi, ohi olamni kuydirishi, bu olovning ko'ngil shu'lasidan chiqqanligi, tani telbalikdan kulga aylanishi, lekin bundan mashuqa g'ofil ekanligi tasvirlanib, lirik qahramon ahvoli baytma-bayt kuchaytirilib boradi va oshiq umidi so'nggi misrada oydinlashadi.

Navoiy qullug'in faqr ahlining piri qabul etsa,  
Erur bir banda ozod aylagan yanglig' shahi odil.

Anglashiladiki, Navoiy agarda ishqini piri komil qabul qilsa, odil shoh asirni ozod qilgandek xursand bo'ladi. Bu g'azal tasavvufiy bo'lib, oshiqning ma'shuqaga bo'lgan ishqni



kuylangan. Navoiyning o'zligidan kechganlar piridan qullug'ini, ya'ni toat-ibodatini qabul qilishini so'rash edi. Bu niyati amalga oshsa, undan baxtiyorroq kimsa dunyoda bo'lmasdi.

Navoiy lirikasidaadolat nafaqat shohga, balki husn shohi bo'l mish ma'shuqaga nisbatan ham qo'llanadi.Ya'ni shoир yorga murojaat qilib undan zulm qilmaslikni so'rashi, shuncha jabr ko'rsa-da chidayotganligini kuzatamiz.

Zulm ila el jonig'a o't yoqma, eykim, shohsen,  
Gar desang do'zax o'tig'a jonne mahrur etmayin.

Navoiyning bu baytini ikki xil tushunish mumkin. Biri shuki, sen shohsan elni zulm bilan qiynama, ularning joniga o't yoqib azob berma. Ular zulm otashida yonib xuddi do'zax o'tida yonganday azoblanadi. Ikkinchisida esa elga azob berganing uchun bir kun dunyodan o'tgach yagona bo'lgan odil zotning oldida javob berasan, o'z joningni do'zax o'tiga tashlama, degan ma'noni uqamiz. Bu baytni ma'shuqaga nisbatan ham ishlatish mumkin, chunki u juda ko'p oshiqlarni qiyaydi, azob beradi. Ularga zulm qilaverish yaxshimas. Demak, shoир bu chaqiriqni go'zal yorga ham, sultonga nisbatan ham qo'llagan, deb tushunish mumkin.

Navoiy "Bor" radifli g'azalida ayriliq qo'lida o'lmadim, lekin boshim egildi, xam bo'ldi, bu holatni ko'rganlardan xijolat bo'laman, deya zorlanadi. Agar shohim adolat ko'rsatsa, sevimli mulk obod bo'ladi, deya niyatini oshkor etadi.

Firoqing ilgida chun o'l madim, boshim quyidur,  
Bu sheva zohir etar, kimsakim xijolati bor.  
Ko'ngul jafosidin obod erurki, bo'ldi tuzuk  
Harimi mulk, agar shohning adolati bor.

Shu jumladan, Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonining "Anga" radifli g'azali ham e'tiborga molik. Chunki unda shoh va gado obrazlari solishtirilgan bo'lib, shoир nazdida darveshsifat shohgina adolatparvar bo'ladi. Shoh olamlarni egallasa, darveshlar olamdan ochadi, bu qanday hol, insof bilan bunga nisbat bergen, deya xitob qiladi shoир.

Shah emastur bir nafas osuda do'zax vahmidin,  
Ey xusho darveshkim, mardud erur jannat anga.

Demak, shoh bir nafas bo'lsa-da, do'zax vahmidan xalos bo'la olmaydi, chunki har bir ishi odillik asosida bo'lishi lozim, agar zulmni o'ziga kasb qilib olsa, jahannamga tushishi muqarrardir. Yaxshi xulqli darveshga esa jannat noloyiqdir, sababi u jannatdan ham a'loroq joyga munosibdir.

G'azalda shohlarning darveshi, darveshlarning shohi sifatida shoh G'oziy tilga olinadi. Chunki shoh G'oziy, ya'ni Husayn Boyqaro Navoiy nazdida adolatli yurt boshqaruvi bilan Iskandar yurtidek obod yurt, osoyishta xalq, mo'l xazina, kuchli lashkarga ega bo'lgandi.

Navoiy qit'alaridaadolat mavzusi o'ziga xos tarzda ifodalangan bo'lib, ularda falsafiylik, axloqiylik ustunlik qiladi, bu qit'alar shohlar uchun yo'riqnomadek jaranglaydi.

Navoiyning adolat mavzusidagi qit'alarida hadislar tafsiri ham keltirilgan bo'lib, ulardan biri "Annosu 'alo dini muluk" deya nomlanadi.

Shahning af'oli etar xaylu sipohig'a asar,  
Chu nabi dediki, «annosu 'alo dini muluk».  
Hukamo ham dedilar shahni tengiz, xayli ariq,  
Ul achig'dur, bu achig', ul chuchuk o'lsa, bu chuchuk.



Shohning qilmishlari askarlari jamoasiga ta'sir etmay qolmas, ya'ni shohning fe'l-atvori askarlarida ham namoyon bo'ladi. Chunki payg'ambarimiz: El ulug'lari ham shoh dengiz bo'lsa, eli ariqdir, dengiz suvi sho'r bo'lsa, ariq suvi ham sho'r, unisi chuchuk bo'lsa, bunisi ham chuchukdir, deganlar. "Podsho qanday bo'lsa, uning a'yonlari ham shundaydir", degan hadisning ma'nosi shunga ishora.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga keldik:

Navoiyning adolat bobidagi qarashlari devonlaridan tashqari "Vaqfiya", "Nazm ul-javohir", "Mahbub ul-qulub", "Tarixi muluki Ajam" kabi asarlari tarkibida ham kelgan. Alisher Navoiy lirikasida adolat mavzusini deyarli barcha janrlarda jumladan, soqiynoma, g'azal, qit'a, ruboiy, fardlarda kuzatishimiz mumkin.

Shoir she'riyatida adolat mavzusi ba'zan ijtimoiy-falsafiy, ba'zan siyosiy-huquqiy, ba'zan esa ishqiy ko'rinishda o'z ifodasini topadi. Ularda adolat g'oyasi, shoh va fuqaro, hukmdor va mulozimlar, podsho va sipohi; oila boshlig'i va ayollari, ota va farzandlar, aka-ukalar; oshiq va ma'shuq o'rtasidagi munosabatlarda kuzatiladi.

Navoiy she'riyatida adolat borasidagi fikrlarni dalillsh uchun hadislar, tarixiy shaxslarning keltirilganiga guvoh bo'lamiz. Navoiy ijodida xoh u nasriy asar bo'lsin, xoh lirik asar bo'lsin shoh va gado obrozi ko'p hollarda birgalikda tasvirlanadi, qiyoslanadi, zidlantiriladi. Shoh va darvesh munosabatlarida ham adolat g'oyasining qirralar namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy g'azallarida adolat g'oyasi ba'zan ishqiy g'azallar, ba'zan ijtimoiy-falsafiy g'azallar tarkibida kelib, ko'p hollarda shoirning ijtimoiy, falsafiy fikrlari ishqiy g'azallari tarkibida uyg'unlashib ketgan holda ko'ramiz.

Navoiy g'azallarida adolat mavzusi ma'shuqa xususiyatlariga mutanosib holda tasvirlanadi va yorga shoh deya murojaat etiladi. Ma'shuqa ba'zan go'zal qiz sifatida, ba'zan Allah, ba'zan hukmdor sifatida gavdalanadi. G'azallarda adolat g'oyasi oshiqning yordan zulm qilmaslikni so'rashi, xumor unda ko'p bo'lsa-da ag'yorlarga marhamat ko'rsatayotgani, unga ham adolat qilishni o'tinish, shuncha chekkan azoblari evaziga bir kun adolat qilishini kutish, ko'rinishida nomoyon bo'ladi.

Shoir qit'alari mavzusi keng qamrovli bo'lib, shoir ularda adolat g'oyasi nafaqat shohlarga, balki yurt amaldorlaridan tortib oddiy fuqaroga ham zeb ekanligini, bir kun kelib Haq oldida javob berishi va shunga yarasha mukofotlanishini ta'kidlaydi.

Navoiy qit'alari orasida o'z hayoti, maqsadlari tasvirlanganlari ham talaygina, lekin ular shoirning falsafiy, axloqiy qarashlari zamirida kelgan. Chunki shoir ko'p yillar davomida davlat ishlarida faol qatnashgan va xalq hayotidan, davlat boshqaruv tizimidan yaxshigina xabardor bo'lgani holda lirikasida ham shohlarga nasihat qilishni, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatib o'tadi.

### References:

1. Boboyev H. "Navoiy ijodida davlatchilik va huquq" mavzusidagi davra suhbati // Huquq va burch, 2009.
2. Qayumov A. Alisher Navoiy. Toshkent: Kamalak, 1991.
3. Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik. 1-jild. Toshkent: Fan, 1983.
4. V.Rahmonov, A.Rustamov. Navoiyning Badiiy mahorati. Toshkent: Adabiyot va san'at, 1979.
5. M.Qo'shjonov. Ijod saboqlari. Toshkent: Yosh gvardiya, 1973.